



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024-yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **87,7** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **2,2** mingtaga ko‘paygangan yoki **2,5 %** ga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **28,3** birlikni tashkil qildi.



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024-yilning yanvar-oktabrda **12,3** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **0,04 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2024- yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi

2020-2024-yillar 1-oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo‘yicha 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
85 507	Toshkent sh	87 778
7 161	Uchtepa t	7 087
2 401	Bektemir t	2 629
10 180	Yunusobod t	10 295
10 013	Mirzo Ulug’bek t	10 267
7 210	Mirobod t	7 192
7 786	Shayxontohur t	7 701
8 272	Olmazor t	8 222
4 894	Sirg‘ali t	5 306
7 533	Yakkasaroy t	80 19
7 434	Yashnabod t	7 900
2 319	Yangihayot t	2 848
10 304	Chilonzor t	10 312

2024-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **87 778** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **12 371** tani tashkil etdi.

2024-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Chilonzor tumanida **10 312** tani yoki jamiga nisbatan **11,7 %** ni tashkil etdi.


1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbatli

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli, birlikda)*

Toshkent sh.	28,3
Uchtepa	23,5
Bektemir	40,8
Yunusobod	26,8
Mirzo-Ulug'bek	30,5
Mirobod	46,7
Shayxontohur	20,9
Olmazor	20,0
Sirg'ali	30,8
Yakkasaroy	58,0
Yashnobod	25,6
Yangihayot	15,4
Chilonzor	37,3
	10,0



Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli 1-oktabr holatiga, birlikda



2024-yil 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **28,3** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan **0,4** birlikka ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbatli eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida **58,0** birlik, Mirobod tumanida **46,7** birlik, Bektemir tumanida **40,8** birlik, Chilonzor tumanida **37,3** birlik va Sirg'ali tumanida **30,8** birlikka yetdi.


* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Yakkasaroy tumani
– 58,0 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Sirg'ali tumani
– 30,8 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Yangihayot tumani
– 15,4 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tumanlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida **58,0** birlik, Mirobod tumanida **46,7** birlik, Bektemir tumanida **40,8** birlik, Chilonzor tumanida **37,3** birlik,, Sirg'ali tumanida **30,8** birlik, Mirzo Ulug'bek tumanida **30,5** birlikda kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariغا muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1-oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Yakkasaroy tumani

58,0

Bektemir tumani

40,8

Sirg'ali tumani

37,3

46,7

30,8

Mirobod tumani

Chilonzor tumani


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

**Yanvar-sentabr oylarida
hududlar bo‘yicha yangi tashkil
etilgan kichik korxona va
mikrofirmalar, birlikda**

2023- y. **2024- y.**

12 376	Toshkent sh	12 371
806	Uchtepa	865
308	Bektemir	302
1437	Yunusobod	1408
1585	Mirzo-Ulug‘bek	1480
1118	Mirobod	979
1013	Shayxontohur	1039
1142	Olmazor	1130
760	Sirg‘ali	821
1074	Yakkasaroy	1174
1160	Yashnobod	1150
534	Yangihayot	658
1437	Chilonzor	1365
770		663

**2024- yilning yanvar-sentabr oylarida
yangi tashkil etilgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha
ulushi, % da**




2024- yilning yanvar-sentabrida
hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Mirzo
Ulug‘bek tumani – **11,9** %, Yunusobod –
11,3 %, Chilonzor tumani – **11,0** %,
Yakkasaroy-**9,3** %, Yashnobod – **9,2** % va
Olmazor tumanlari– **9,1** %, Shayxontohur
tumani – **8,3** %, Mirobod tumani– **7,9** %
hissalariga to‘g‘ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan tumanlar, birlikda




2024-yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **4 719** ta, sanoatda **1 172** ta hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida **1 100** ta yangidan tashkil etilgan.


Toshkent shahrining tumanlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Mirzo-Ulug‘bek tumanida **1 480** ta, Yunusobod tumanida **1 408** ta, Chilonzor tumanida **1 365** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-sentabr davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida Toshkent shahrida 2024-yilning yanvar-sentabr oylari davomida jami **12 371** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **4 719** (yoki **38,1** %) ta, xizmatlar sohasida – **2 674** (yoki **21,6** %) ta, sanoat sohasida – **1172** (yoki **9,4** %) ta, qurilish sohasida – **849** (yoki **6,8** %) ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **96** (yoki **0,7** %) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da




■ 2023- y. ■ 2024- y.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), % da

2024-yilning yanvar-sentabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **50,7** % ni tashkil qilib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **2,3** foizga kopaygan.




2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo‘lovchi aylanmasida **81,9** % ni, qurilishda **67,2** % ni, yo‘lovchi tashishda **74,4** % ni, yuk aylanmasida **61,7** % ni, chakana savdoda **56,0** %, investitsiya **38,1** % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024-yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mldr. so'm

Toshkent sh.	48 992,7
Uchtepa	2 231,1
Bektemir	3 661,8
Yunusobod	2 853,4
Mirzo-Ulug'bek	3 422,8
Mirobod	2 876,6
Shayxontohur	1 928,3
Olmazor	5 392,9
Sirg'ali	3 949,6
Yakkasaroy	2 642,3
Yashnobod	4 135,6
Yangihayot	1 923,3
Chilonzor	4 453,6

2024-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **48 992,7** mldr. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Olmazor tumani (**53 92,9** mldr. so'm), Chilonzor tumani (**4 453,6** mldr. so'm), Yashnobod tumani (**4135,6** mldr. so'm), Sirg'ali tumani (**3 949,6** mldr. so'm) va Bektemir (**3 661,8** mldr. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Yangihayot tumani (**1 923,3** mldr. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega tumanlar, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2024- yil yanvar-sentabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 38,8 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-sentabrida tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Tumanlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Olmazor tumani (61,6 %), Chilonzor tumani (41,3 %), Yunusobod tumani (55,6 %), Bektemir tumani (38,8 %), Mirzo-ulug`bek tumani (43,0 %) va Yakkasaroy tumani (38,4 %) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-sentabrida tumanlar boʻyicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Toshkent sh.	28 723,4	67,2
Bektemir	599,1	57,0
Mirzo Ulug'bek	2 389,9	72,9
Mirobod	3 140,3	66,9
Olmazor	1393,6	65,3
Sirg'ali	1000,4	83,9
Uchtepa	873,6	84,1
Chilonzor	1969,1	71,9
Shayxontohur	1184,8	41,2
Yunusobod	2382,6	78,7
Yakkasaroy	2350,3	69,5
Yangihayot	1031,7	76,9
Yashnobod	2240,0	55,6


hajmi, mlrd. soʻmda ↑
ulushi, % da ↑

2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **28 723,4** mlrd soʻmmi yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **67,2** ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **104,6%** ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Mirobod (**3 140,3** mlrd. soʻm), Mirzo Ulug'bek (**2 389,9** mlrd. soʻm), Yunusobod (**2 382,6** mlrd. soʻm), Yakkasaroy (**2 350,3** mlrd. soʻm), Yashnobod(**2 240,0** mlrd. soʻm), Chilonzor(**1 969,1** mlrd. soʻm), hamda Olmazor (**1393,6** mlrd.soʻm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda



2024-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **22 148,4** milliard so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **38,1** ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **131,3 %** ni tashkil qildi.


Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Yashnobod(3 036,6mlrd. so‘m), Mirzo-Ulug’bek (2 955,8mlrd. so‘m), Yunusobod (2 704,6 mlrd. so‘m), Uch tepa (2 115,4 mlrd. so‘m), Shayxontohur(1 960,4 mlrd. so‘m), Yakkasaroy (1 706,5 mlrd. so‘m), Sirg’ali (1 687,4 mlrd.so‘m), Mirobod (1 486,5 mlrd.so‘m) hamda Chilonzor (1566,0 mlrd.so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi


Toshkent sh



■ hajmi, mlrd. so‘m ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **37 458,7** mlrd. so‘nni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **56,0 %**ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **107,8 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-sentabrir oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Joshkent sh.	37 458,7	56,0
Uchtepa	4 915,8	82,0
Bektemir	2 090,1	86,4
Yunusobod	3 871,9	56,6
Mirzoz Ulug‘bek	2 797,7	52,9
Mirobod	2 186,7	42,9
Shayxontohur	3 551,9	48,8
Olmazor	2 818,7	59,6
Sirg‘ali	1 228,9	36,5
Yakkasaroy	2 214,3	41,5
Yashnobod	2 536,9	45,4
Yangihayot	577,8	55,1
Chilonzor	7 614,1	67,5

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Chilonzor (**7 614,1** mlrd. so‘m), Uchtepa (**4 915,8** mlrd. so‘m), Yunusobod (**3 871,9** mlrd. so‘m), Shayxontohur (**3 551,9** mlrd. so‘m), Olmazor (**2 818,7** mlrd. so‘m), Mirzo Ulug‘bek (**2 797,7** mlrd. so‘m) va Yashnobod (**2 536,9** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.


2019 va 2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, mlrd. so‘m



2019- y.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabrida tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mldr. so‘mda



2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **42 919,0** mldr. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **37,5 %** ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **109,7%** ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Mirobod (**10 100,9** mldr. so‘m), Yakkasaroy (**9 289,2** mldr. so‘m), Yunusobod (**8 976,6** mldr. so‘m), Mirzo Ulug’bek (**8 345,3** mldr. so‘m), Yashnobod (**7 305,0** mldr. so‘m) Chilonzor (**6 115,2** mldr. so‘m) va Olmazor (**5 289,8** mldr. so‘m) tumanlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari
(yanvar-sentabr oylarida)

57 492,3	Moliyaviy xizmatlar	31,9
37 802,6	Savdo xizmatlari	18,8
18 842,6	Transport xizmatlar	9,8
27 954,4	Aloqa va axborot xizmatlari	13,0
12 942,0	Boshqa xizmatlar	6,8
19 468,3	Yashash va ovqatlanish xizmatlar	4,9
10 088,2	Ta’lim sohasidagi xizmatlar	4,7
8 930,0	Ko’chmas mulk bilan bog’liq xizmatlar	3,2
4 333,2	Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	2,1
5 295,6	Sog’liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,9
2 396,0	Ijara xizmatlar	1,3
1 990,2	Shaxsiy xizmatlar	1,0
1 075,3	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	0,4

Hajmi, mlrd. so‘mda


Ulushi, foizda

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi moliyaviy xizmatlarda – **31,9 %** (**57 492,3** mlrd. so‘m), savdo xizmatlarda – **18,8 %** (**37 802,6** mlrd. so‘m), transport xizmatlar – **9,8%** (**18 842,6** mlrd. so‘m) hamda aloqava axborot xizmatlarda **13,0 %** (**27 954,4** mlrd. so‘m)ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi kompyuter va maishiy tavarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarda **0,4 %** (**1 075,3** mlrd so‘m) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi


	hajmi, mln. AQSH dollar	ulushi, % da
oshkent sh.	823,7	20,3
Uchtepa	28,4	11,9
Bektemir	38,8	66,3
Yunusobod	55,5	15,1
Mirzo Ulug'bek	43,0	32,7
Mirobod	46,3	4,0
Yangihayot	31,6	12,9
Olmazor	62,5	45,0
Sirg'ali	31,6	17,7
Chilonzor	23,9	21,8
Yashnobod	18,6	19,5
Chilonzor	41,3	19,3

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **823,7** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **20,7** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabrida tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bektemir tumanida – **66,3** %, Olmazor tumanida – **45,0** %, Mirzo Ulug'bek tumanida – **32,7** %, Yangihayot tumanida – **21,8** %, Yashnobod tumanida – **19,5** %, Chilonzor tumanida – **19,3** %, Sirg'ali tumanida – **17,7** %,ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Mirobod tumanida – **4,0** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **4 101,3** million AQSH dollarini yoki jami importning **41,5%** ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Uchtepa tumanida – **56,5%**, Yashnobod tumanida – **50,0%**, Mirobod tumanida – **49,8%**, Yakkasaroy tumanida – **49,1%**, Sirg‘ali tumanida – **45,7%**, hamda Olmazaor tumanida **45,1** % ni tashkil etdi.

Toshkent sh	41,5
Uchtepa	56,5
Yashnobod	50,0
Mirobod	49,8
Yakkasaroy	49,1
Sirg‘ali	45,7
Olmazor	45,1
Yangihayot	39,9
Chilonzor	38,9
Shayxontohur	36,2
Bektemir	35,0
Yunusobod	33,6
Mirzo Ulug‘bek	22,4
	10,3

Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati

38,9 %

Yuk
tashishda

53,8 %

Yuk
aylanmasida

75,4 %

Yo'lovchi
tashishda

82,8%

Yo'lovchi
aylanmasida

2024- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **38,7 %** ni tashkil etdi. 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,1 %** ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **53,8 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,2 %** ni tashkil qildi.


2024-yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **75,4 %** ni tashkil etib,

2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **97,6 %** ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **82,8 %** ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,2 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil III chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da **4 056** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **1 407 (34,6 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **2 271 (56,1 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **378 (9,3 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) xizmatlar sohasida – **42,9 % (1 741 ta)**, savdoda – **38,1 % (1 549 ta)**, sanoatda – **12,8 % (522 ta)**, qurilishda – **5,8% (239 ta)**, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **0,1 % (5 ta)**ni tashkil etdi.

2024- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo‘yicha taqsimlanishi

447	Yunusobod	11,0
459	Chilonzor	11,3
485	Mirzo-Ulug’bek	11,9
391	Yakkasaroy	9,6
387	Olmazor	9,5
338	Mirobod	8,3
372	Yashnobod	9,1
330	Shayxontohur	8,1
337	Uchtepa	8,3
253	Sirg‘ali	6,2
145	Bektemir	3,5
112	Yangihayot	2,7


Soni, birlikda (ta)

Ulushi, foizda

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Mirzo-Ulug’bek (**485** ta), Chilonzor(**459**ta), Yunusobod (**447**ta), Yakkasaroy (**391** ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning III choragida **1026** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning II choragiga kelib esa **1 407** taga yetgan yoki 2019-yilning III choragiga nisbatan **381** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilda **2 905** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-sentabrida **2 271** ta yoki **634** taga kamaygan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **204** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib **378** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan **174** taga kopaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragida umumiyligi qoniqarli holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlikda



qulay

qoniqarli

qoniqarsiz


Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiyligi qoniqarli vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan qulay deb baholagan korxonalarining soni 2019-yilning III choragida **1 026** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning III choragiga kelib esa **1 407** taga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **381** taga kopaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining soni 2019-yilning III choragida **2 905** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning III choragida **2 271** ta yoki **634** taga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2019-yilning III choragida **204** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **315** tani tashkil etib, **111** taga kopaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirdorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhitini holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning III choragida **24,8** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilga kelib esa **34,6** % ga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **9,8** % oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilda **70,3** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning III choragida **55,9** % tashkil etgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **4,9** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning III choragiiga kelib ham, bu ko‘rsatkich **9,3** % bo‘lgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024-yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **44,8** % ni, savdoda – **37,5** % ni, sanoatda – **11,3** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **42,5** % ni, savdoda – **38,4** % ni, sanoatda – **13,4** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **38,0** % ni, savdoda – **38,8** % ni, sanoatda – **15,0** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

■ Sanoat

■ Qurilish

■ Savdo

■ Xizmat

2024-yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **53,0** % ni, savdoda – **51,1** % ni, sanoatda – **16,6** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **40,6** % ni, savdoda – **33,0** % ni, sanoatda – **11,6** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdo sohasida – **20,6** % ni, xizmatlar sohasida – **18,7** % ni, sanoatda – **6,0** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	40,0	43,4	16,6
Band bo‘lganlar soni	24,5	65,3	10,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	31,1	61,7	7,2
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	31,1	61,7	7,2
Raqobat muhiti	32,0	61,7	6,3

	Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	41,1	52,7	6,2
Band bo‘lganlar soni	22,6	73,2	4,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	27,0	68,5	4,5
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	27,0	68,5	4,5
Raqobat muhiti	30,4	65,2	4,4


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



**2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin
3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da**



* Faqat raqobat muhitiga tegishli